

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**«Geologiya va konchilik ishi» fakulteti**

**«Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi» kafedrasi**

**Ro'yxatga olindi:**  
№ 25  
“29” 08 2022 yil



**“IZLASH VA QIDIRISH ISHLARINI BAHOLASH”  
fanining**

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 300000 – Ishlab chiqarish texnik soha  
**Ta'lif sohasi:** 310000 – Muhandislik ishi  
**Ta'lif yo'nalishi:** 5311700 – «Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (neft va gaz konlari)»

**Umumiy o'quv soati** – 56 soat  
Shu jumladan:  
*Ma'ruza* – 12 soat  
*Amaliy mashg'ulotlar* – 12 soat  
*Mustaqil ta'lif* 32 soat

**Qarshi - 2022**

Fanning ishchi o‘quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 2022 yil 29 ”08 dagi №1 - Kengashida tasdiqlangan “Izlash va qidirish ishlarini baholash” fani dasturi asosida tayyorlangan.

**Tuzuvchilar:**

- Yarboboyev T.N.** – QMII, “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi professor v.b.  
**Usmonov Q.M.** – QMII, “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi yig‘ilishida (bayon №1, 22/03/2022 y.), “Geologiya va konchilik ishi” fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon №1, 27/03/2022 y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon №1, 29/03/2022 y.) muhokama etilgan va o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

QMII, O‘quv- uslubiy boshqarma boshlig‘i:

Sh.Turdiyev

QMII, “Geologiya va konchilik ishi” fakulteti Uslubiy Komissiyasi raisi:

M.G.ofirov

“Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi mudiri:

Sh.Sh.Turdiyev

## **1. O‘quv fani o‘qitilishi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar**

“Izlash va qidirish ishlarini baholash” fani talabalarda 5311700 – “Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi (neft va gaz konlari)” bakalavr ta’lim yo‘nalishiga va neft va gaz uyumlarini izlash va razvedka qilish usullari bo‘yicha yo‘nalish profilga mos bilim ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- konni geologik-iqtisodiy baholash;
- neft va gaz konlarini sanoatdagi ahamiyati;
- geologik axborotlar asosida bashoratlash;
- konni sanoatdagi qiymatini aniqlovchi omillar;
- neft va gaz uyumlarini izlash va qidirish usullarini, ularni har xil aniq geologik sharoitlar uchun radikal ko‘rsatkichlarini tanlash usullarini bilishi kerak;
- talaba uyumlarni izlash va qidirish usullarini aniq geologik sharoitlar uchun geologik va iqtisodiy asoslangan hamda to‘g‘ri tanlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;
- talaba neft va gaz uyumlarini izlash bosqichidagi geologik-qidiruv ishlarini natijalarini hamda konni razvedka bosqichini sarf-xarajatlarini xalq xo‘jaligidagi samaradorligini aniqlash malakasiga ega bo‘lishi kerak;
- neft va gaz uyumlarini izlash-qidirish ishlarini geologik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

## **2. Ma’ruza mashg‘ulotlari**

*I-jadval*

<b>Nº</b>	<b>Ma’ruzalar mavzulari</b>	<b>Dars soatlari hajmi</b>
1.	Kirish. Neft va gaz sanoatining shakllanishi va rivojlanishi.	2
2.	Neft va gaz konlarini sanoatdagi ahamiyati.	2
3.	Neft va gaz konlarini sanoatidagi qiymatini aniqlovchi asosiy omillar.	2
4.	Neft va gaz konlarini geologik-iqtisodiy baholash.	2
5.	Neft va gaz zaxiralari, istiqbolli va bashoratlangan resurslari va ularning sifatiga qo‘yiladigan talablar.	2
6.	Neft va gaz uyumlarini izlash-qidirish ishlarining samaradorligini baholash.	2
<b>Semestr bo‘yicha jami:</b>		<b>12</b>

Ma’ruza mashg‘ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akademik guruhlar oqimi uchun o‘tiladi.

### 3. Amaliy mashg‘ulotlar

2-jadval

Nº	Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
1.	Seysmorazvedka ishlarining geologik-iqtisodiy samaradorligini baholash	2
2.	Quduq qurilishining loyixaviy davomiyligini asoslash	2
3.	Izlash va qidirish ishlarinining iqtisodiy samaradorligini hisoblash.	2
4.	Loyihalangan quduqlarni burg‘ilashning taxminiy narxini hisoblash	2
5.	C <sub>3</sub> toifa istiqbolli resurslarni hisoblash usullari	2
6.	Konning sanoatdagi qiymatini aniqlash	2
<i>Semestr bo‘yicha jami:</i>		<b>12</b>

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o‘tiladi. Mashg‘ulotlar interfaol usullar yordamida o‘tiladi. Fanni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan quyidagi interaktiv uslublardan: muhokama-munozara, jamoaviy muhokama, tahlil qilish, babs yoki munozaralar olib borish, tanqidiy fikrlash, rolli o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash, klaster (tutam, bog‘lam), baliq skeleti, ajurli arra, FSMU, bumerang, texnologiyalari va insert jadvallaridan keng foydalilanildi.

Ko‘rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

### 4. Mustaqil ta’lim

3-jadval

T/p	Mustaqil ta’lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
1.	Hozirgi davrdagi neft va gaz uyumlarini izlash va qidirish ishlarini holatini tahlili.	2
2.	Izlash va razvedka ishlarini jarayonini bosqichlari.	2
3.	Neft va gaz uyumlarini izlash usullari.	2
4.	Neft va gaz uyumlarini razvedka qilish usullari.	2
5.	Izlash va qidirish quduqlarini joylashtirishni oqilona usullari.	2
6.	Razvedka qilingan holatini nazorat qilish usullari.	2
7.	Izlash va qidirish geologik-razvedka ishlarini samaradorligini aniqlash.	2
8.	Neft va gaz konlarida geologik qidiruv ishlarining asosiy bosqichlari.	2
9.	Neft va gaz zahiralari va resurslari	2
10.	Neft zahiralarini hisoblash usullari	2
11.	Geologik qidiruv ishlarining geologik iqtisodiy samaradorligini baholash	2

12.	Izlov va qidiruv bosqichlarida chuqur burg‘ilashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash	2
13.	Gaz zahiralarini hisoblash usulini tanlash	2
14.	Geologik qidiruv ishlari doirasida ilmiy-tadqiqot ishlari va uning iqtisodiy samaradorligi.	2
15.	Neft va gaz zaxiralari, istiqbolli va bashoratlangan resurslari va ularning sifatiga qo‘yiladigan talablar.	2
16	Geologik qidiruv ishlarining geologik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash.	2
<b>Jami:</b>		<b>32</b>

**Mustaqil ta’limning asosiy maqsadi** – talabalar o‘qituvchi rahbarligida o‘quv jarayonida olgan bilim va ko‘nikmalarini darsliklar, o‘kuv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar, internet ma’lumotlari, o‘quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalanadi:

- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- berilgan mavzular bo‘yicha axborot (referat) tayyorlash.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil qilinadi.

### 5. Fan bo‘yicha talabalar bilimini nazorat qilish

Talabalar bilimini nazorat kilish Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat kilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom (*Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 ysh 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirshayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini belgilaydi. Nizom O‘z.R.OO‘MTVning 2018 ysh 9 avgustdaggi 19-2018-son buyrugi bilan tasdiqlangan va O‘zbekistan Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 sentabrda 3069-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan)*) asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo‘yicha talabalar bilimini nazorat kilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

**Oraliq nazorat** - semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo‘limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholash maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘tkaziladi.

Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

**Yakuniy nazorat** - turi semestr yakunida tegishli fan bo‘yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash

maqsadida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o’tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o’tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

### *Fan bo‘yicha talabalar bilimini baholash mezonlari*

*Ishchi o‘quv rejaga muvofiq fan bo‘yicha 8-semestrda 6 ta (12 soat) ma’ruza mashg‘uloti, 6 ta (12 soat) amaliy mashg‘uloti va 32 soat mustaqil ta’lim rejalahtirilgan. Fan bo‘yicha semestrda ON kafedra yig‘sishi va fakultet Kengashi qaroriga asosan 1 marta o’tkaziladi.*

Talabani oraliq nazorat turi bo‘yicha baholashda, uning o‘quv mashg‘ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Oraliq nazorat turi bo‘yicha 3 va undan yuqori baho to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat beriladi.

Talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

a) talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda - **5 (a’lo) baho;**

b) talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda - **4 (yaxshi) baho;**

v) talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda - **3 (qoniqarli) baho;**

g) talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

*Maksimal baho - 5*

*Saralash baho - 3*

*4-jadval*

№	Nazorat turi	Baho	Nazorat turi bo‘yicha	
			Maksimal baho	Saralash baho
1	Oraliq nazorat	5 (a’lo) 4 (yaxshi) 3 (qoniqarli) 2 (qoniqarsiz)	5	3
2	Yakuniy nazorat	5 (a’lo) 4 (yaxshi) 3 (qoniqarli) 2 (qoniqarsiz)	5	3

### ***Fan bo'yicha talabalarini baholash natijalarini qayd qilish***

Talabalar bilimini baholash ushbu fan bo'yicha professor-o'qituvchi tomonidan Talabalarning fanni o'zlashtirishini hisobga olish jurnalida (bundan buyon matnda jurnal deb yuritiladi) qayd etib boriladi. Professor-o'qituvchi qo'shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Professor - o'qituvchi jurnalda talabaga qo'yilgan baholarni shu kunning o'zida qayd etib boradi. Agar talabaning bilimini baholash yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, bunda professor-o'qituvchi talabalarning natijalarini 3 kundan ko'p bo'limgan maddatda jurnalga qayd etishi lozim.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtida uzrli sabablarsiz qatnashmagan xollarda jurnalga "0" belgisi yozib qo'yiladi.

Jurnal ushbu fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi, kafedra mudiri va fakultet dekani tomonidan imzolanadi hamda fakultet dekanatida saqlanadi. Jurnalning saqlanishi uchun fakultet dekani mas'ul hisoblanadi.

### **6. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Абрамчева Т.В. Экономическая эффективность нефтегазоразведочных работ. Уч. пособие. Ухта 2003.
2. Бакиров А.А., Бакиров Э.А., Габриэлянц Г.А., Керимов В.Ю., Мстиславская Л.П. Теоретические основы поисков и разведки нефти и газа. Методика поисков и разведки скоплений нефти и газа. Книга 2. Москва. Недра, 2012.
3. Бурцев М.И. Поиски и разведка месторождений нефти и газа. Москва. Издательство Российского университета дружбы народов. 2006.
4. Габриелянц Г.А. Геология, поиски и разведка нефтяных и газовых месторождений. М.Недра. 2000.
5. Лошинин В.П., Пономарева Г.А. Поиски, разведка и геолого-экономическая оценка месторождений полезных ископаемых. Оренбург. 2013.
6. Мазурина Е.В. Оценка и анализ рисков нефтегазовых проектов. Методические указания. Ухта, УГТУ, 2014.
7. Милютин А.Г. Разведка и геолого-экономическая оценка месторождений полезных ископаемых. Электронное издание. Москва МГОУ, 2004.
8. Yarboboyev T.N., Hayitov O.G'. "Neft va gaz uyumlarini izlash va qidirish metodlari". Darslik. Qarshi-2018 y.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

9. Соколов В.Я. Геологические расчеты в поисково-разведочном бурении на нефть и газ. М.Недра. 1991.
10. И.Х.Халиматов, И.П.Бурлуцкая, Р.Т.Закиров, С.Ю.Гом. Проектирование поискового и разведочного бурения на нефть и газ: Учебник, Ташкент, «Фан ва технология», 2011.
11. Инструкция «О составе, порядке разработки согласования и утверждения проектно-сметной документации на строительство скважин на нефть и газ на территории Республики Узбекистан», НХК «Узбекнефтгаз», Ташкент, 2011.
12. Yarboboyev T.N., K.M.Usmonov. Neft va gaz uyumlarini izlash va qidirish metodlari” fanidan amaliy mashg’ulotlarni bajarish uchun Uslubiy ko’rsatma. Qarshi-2021 y.

### **Internet saytlari**

13. [www.geocniga.ru](http://www.geocniga.ru)
14. [www.google.com](http://www.google.com)
15. [www.google.ru](http://www.google.ru)
16. [www.oilandgas.com](http://www.oilandgas.com)
17. [www.oilandgaslibrary.com](http://www.oilandgaslibrary.com)